

OPERA KELIB CHIQISHI VA UNING RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN OVOZ SOHIBLARI

Abduvaliyev Asilbek Baxrom o'g'li

*Akademik xonandalik va opera tayyorlovi
O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi 2-kurs*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Musiqa inson tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini, orzu va umidlarini so'zsiz ifodalaydigan tarjimon ekanligi, Operada orkestr katta o'rin egallashi, Opera janri yuzaga kelishida xonanda va kompozitor Yakopo Peri va shoir Ottavio Rinuchchinining qo'shgan xissalari haqida, o'zbekistonda operani qachon paydo bo'lgani va unga hissa qo'shganlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *opera, musiqa, san'at, raqs, sahna, jarayon, orzu, umid, kechinma, ifodalash, syujet, xususiyat.*

Аннотация: *В данной статье говорится о том, что музыка является переводчиком, выражающим без слов человеческие чувства, душевные переживания, мечты и надежды, о том, что оркестр играет главную роль в опере, о вкладе певца и композитора Якопо Пери и поэт Оттавио Ринуччини в становлении оперного жанра, когда появилась опера в Узбекистане и кто внес свой вклад в ее создание.*

Ключевые слова: *опера, музыка, искусство, танец, сцена, процесс, мечта, надежда, переживание, выражение, сюжет, особенность.*

Annotation: *In this article, it is discussed that music is a translator that expresses human feelings, spiritual experiences, dreams and hopes without words, that the orchestra plays a major role in the opera, about the contributions of the singer and composer Jacopo Peri and the poet Ottavio Rinuccini in the creation of the opera genre. When the opera appeared in Uzbekistan and those who contributed to it are discussed.*

Key words: *opera, music, art, dance, stage, process, dream, hope, experience, expression, plot, feature.*

Opera (lotincha: opera – „mehnat mahsuli“, „asar“)[1] – musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo'lib, o'zida bir nechta san'at turlarini mujassam etadi; unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Musiqa inson tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini, orzu va umidlarini so'zsiz ifodalaydigan tarjimon, yoki tarjimonsiz tushuniladigan san'at asaridir. Musiqa yaralibdi-ki, insonlarni ezgulikka, xalqlarni, millatlarni birlashtirishga, ularni ruhan yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Dunyoni go'zallik qutqaradi deyishganida bu go'zallikning bittasi san'at, aniqrog'i musiqa deb tushunish kerak. Musiqiy san'at asarlari san'atning boshqa turlari kabi kishini hayot va olam haqida fikrlashga, unda estetik didni, maftunkor va go'zal, teran dunyoqarashni shakllashda, ongli mushohada qilishga, o'zgalarga yaxshilik qilishga undaydi. Musiqa har bir millatda o'ziga xoslik bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni ham rivojlantirishga, turli xalqlarning musiqiy va boshqa san'at turlaridan bahramand qilishda ko'zga ko'rinmas ko'prik vazifasini o'taydi. Ushbu maqolada

musiqa san'atining ilk shakllanish davri, turli marosimiy va diniy musiqiy janrlar haqida, uyg'onish davri va uyg'onish davridagi tarixiy zaruriyatlar tufayli vujudga kelgan ilk yirik sahna asarlari-opera janrining paydo bo'lishi, musiqaning inson tafakkurini rivojlanishi va hayotida tutgan munosib o'rni haqida fikr bildiriladi.

Operaning adabiy asosi – libretto (tarjimasi „kitobcha“) dagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini o'zaro bog'lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli vokal ansambl (duet, trio va boshqalar) qahramonlarning o'zaro munosabatlari, dramatik voqealar o'z aksini topadi. Xor ro'y berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq hayoti lavhalarini gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: vokal shakllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qism (antrakt, uvertyura, introduksiya va boshqalar) larda vaziyatning mazmunini ochib beradi, har bir sahnaning ruhiy holatini ifodalashga yordam beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab an'analari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.

Opera - musiqa san'atidagi eng yirik janrlardan hisoblanib u san'atning sintetik turidir. Chunki opera - adabiyot, teatr, rassomchilik, hareografiya va musiqa san'atlari uyg'unlashgan holda hosil bo'ladi.

Shuningdek, opera dramaturgiyasiga, uning obrazlariga yangilik bo'lgan simfoniya shakllandi. Hatto diniy musiqa -oratoriya, kantata opera obrazlarining drammatizmi bilan opera shakllari, konsertbop vokal uslubi, kompozitsiya tamoyillari kirib keldi. Endilikda oratoriya va kantatalar ham maishiy mavzularni ifodalay olar edi. Opera janrining umumiy tabiati uni katta sahnalarda ijro etilishini, keng demokratik auditoriya bilan muloqotda bo'lishni taqazo etdi. Operani jamiyatda tutgan o'rning o'ziga xosligi ham shundan iborat bo'ldi.

Ya'ni ushbu janr syujetida yoritilishi mumkin bo'lgan mavzular qamrovi yuqorida aytganimizdek chegara bilmas va keng qamrovli edi. Shuning uchun ham operada tarixiy, afsonaviy, ertak va maishiy mavzular syujet sifatida tanlanar va endilikda opera nafaqat tomashabob sahna asari, balki tarbiyaviy va tanqidiy ahamiyatga ega ta'sir etish kuchiga ham aylandi.

Opera janri yuzaga kelishida xonanda va kompozitor Yakopo Peri va shoir Ottavio Rinuchchinining qo'shgan xissalari ulkan. Yakopo Peri (1561-1633) Toskananing buyuk gersoglari- Medichilar saroyida “musiqa va musiqachilarning bosh direktori” lavozimida xizmat qilgan. Ottavio Rinuchchini esa Torkvato Tassoning shogirdlaridan biri edi. Ikkala ijodkoming sa'y-harakatlari ila yaratilgan birinchi opera “Dafna” partiturasini bizgacha saqlanib qolinmagan. Bizgacha “Evridika” operasi yetib kelgan. Uning premyerasi 1600-yil Fransiyada qirol Genrix IV va Mariya Medichilarning nikoh marosimi chog'ida bo'lib o'tgan.

O'zbekistonda opera janri o'zbek mushkeli dramasi rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasi ta'sirida yuzaga kelgan. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Toshkentga bir nechta (guzin – 1894; 1907–1915-yillarda – italyan, tatar, rus, ozarbayjon) opera truppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Toshkentda Rus opera teatri o'z faoliyatini

boshlagan. 1929-yilda M. Qoriyoqubov tashabbusi bilan o‘zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo‘lgan. Mazkur teatr sahnasida o‘zbek tilida qo‘yilgan birinchi operalar – „Er Targ‘in“ (Y. Brusilovskiy, 1937) va „Nargiz“ (M. Magomayev, 1938)dir. o‘zbek opera va balet truppasi O‘zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, 1939-yil S. Vasilenko va M. Ashrafiyning „Bo‘ron“ operasi bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o‘zbek operalari o‘zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O‘zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan (R. Glier, T. Sodikrv, „Layli va Majnun“, 1940; „Gulsara“, 1949; A. Kozlovskiy, „Ulug‘bek“, 1942). Shu davrda o‘zbek tilida jahon mumtoz opera namunalari (J. Bizening „Karmen“, 1944; P. Chaykovskiyning „Yevgeniy Onegin“, 1947 va boshqalar) ham sahnalashtirildi. Keyinchalik o‘zbek kompozitorlarining afsonaviy-romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo‘ldi: „Dilorom“, „Shoir kalbi“ (M. Ashrafiy), „hamza“ (S. Boboyev), „Xorazm qo‘shig‘i“ (M. Yusupov) va boshqa Birinchi o‘zbek hajviy operasi „Maysaraning ishi“ (S. Yudakov) bo‘lib, bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida quyilgan. „Yoriltosh“ (S. Boboyev) birinchi o‘zbek bolalar operasidir.

1970–1980-yillari o‘zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitishdi. Shu davr ichida tarixiy – „Mangulik“ (U. Musayev), „Fidoyilar“ (S. Boboyev), zamonaviy – „Sadoqat“ (R. Abdullayev), atoqli shaxslarga bag‘ishlangan – „Sug‘d elining qoploni“ (I. Akbarov), „Zebunniso“ (Sayfi Jalil), „Alisher Navoiy“ (M. Burhonov), shuningdek, kamer operalar – „Sohilda to‘qnashuv“ (N. Zokirov), „Ona qalbi“ (Hab. Rahimov) va boshqa operalar sahnalashtirildi.

Mustaqillik davri o‘zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi: jahon mumtoz adabiyoti (N. Zokirovning Shakespeare tragediyalari asosida yaratilgan „Hamlet“ va „Makbet“ opera-dilogiyasi), hozirgi zamon ijtimoiy muammolari (N. Zokirovning „Muxtoriyat“ opera-farsi, opera Abdullayevaning „Vafo“, F. YanovYanovskiyning „Orkestr“ operalari), tarixiy shaxslar siymolari (M. Bafoyevning „Al-Farg‘oniy“) va falsafiy mavzular (I. Akbarovning „Ibtido xatosi“ operaoperatoriyasi) opera janrini keyingi rivojini belgiladi. Mazmunni talqin qilishda asosiy urg‘u milliy hamda umumbashariy ma’naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Bu davrda o‘zbek kompozitorlari opera asarlarida o‘zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an‘analarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog‘lashga ahamiyat berdilar.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. B.Yoqubov “Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”
2. B.Madrimov “Musiqa tarixi”
3. Levik B. Chet el musiqasi tarixi (darslik) - Toshkent, 1981.
4. Problemi istoriko-stilevoy evolyusii. Novosibirsk, 1994.